

MILLIY IQTISODIYOT TARMOQLARI RAQAMLASHUVINING TARMOQLAR TARAQQIYOTI TENDENSIYALARIGA TA`SIRINI BAHOLASH

*Boqiyeva Fayziniso Payravjon qizi,
Farg`ona Davlat Universiteti Iqtisodiyot fakulteti magistranti
fayzinisazamjonova@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada Respublikamizning milliy iqtisodiyot tarmoqlarining raqamlashtirish jarayonlariga o`rishi, raqobatbardoshlikka va innovatsion rivojlanish tendensiyasiga ko`rsatgan ta`siri tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotda “Raqamli O`zbekiston – 2030” strategiyasi bo`yicha amalga oshirilayotgan ishlar, ularni tarmoqlar faoliyatidagi natijalari va raqamli transformatsiyaning iqtisodiy ko`rsatkichlarga ta`siri yoritilgan.

Kalit so`zlar: raqamli iqtisodiyot, innovatsion rivojlanish, raqamli infratuzilma, raqamlashuv, tarmoq samaradorligi, raqamli infratuzilma.

KIRISH

Hozirgi globallashtirish davrida iqtisodiy o`rinishning asosiy omillaridan biri bu raqamli texnologiyalarni iqtisodiyot tarmoqlariga muvofiqlashtirishdir. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi ishlab chiqarish, moliya, xizmat ko`rsatish, transport, ta`lim va boshqa sohalarda axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) keng foydalanishni anglatadi. Yurtimizda ham bu yo`nalishda faol islohotlarni amalga oshirib, “Raqamli O`zbekiston – 2030” strategiyasi orqali iqtisodiyot tarmoqlarida yechimlar joriy qilish, yagona tizimga ma`lumotlar bazasini birlashtirish va raqamli xizmat ko`rsatishni ham kengaytirishni maqsad qilgan.

O`zbekiston iqtisodiyotining quyidagi sohalarida raqamlashtirish jadal rivojlanmoqda:

➤ Ta`lim va sog`liqni saqlashda – elektron ta`lim platformalari (“Ziyonet.uz”, “edu.uz”), shuningdek, “my.soliq.uz”, “E-Polyclinic”, “Dmed” kabi davlat xizmatlari tashkil qilingan;

➤ Qishloq xo`jaligida – “Agroplatforma” dasturi orqali yer maydonlarini raqamli xaritalash, hosildorlik monitoring va dron texnologiyalari qo`llanilmoqda.

➤ Sanoat tarmog`ida – ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtirilyapti, ERP va CRM tizimlari joriy qilingan.

➤ Bank – moliya tizimida – masofaviy bank xizmatlari , onlayn to`lov tizimlari (“Click”, “Payme” , “ Apelsin”, “TBC” , “Uzum”), va fintech ekotizimlari rivojlanib kelmoqda.

Raqamli iqtisodiyot shunday tizimki, unda iqtisodiy faoliyatning barcha turlarini raqamli texnologiyalar orqali amalga oshirish, axborotlarni qayta ishlash va tahlil qilishga asoslangan. Jahon banki bergan ta`rifiga ko`ra, raqamli iqtisodiyot quyidagi 3 ta asosiy komponentni o`z ichiga oladi:

Raqamli infratuzilma

internet, telekommunikatsiya

Raqamli platformalar

onlayn xizmatlar, elektron to`lov tizimlari

Raqamli iste`molchilar va ishlab chiqaruvchilar

foydalanuvchilar va biznes sub`yektlari

1-rasm. Raqamli infratuzilma

Bu asosiy komponentlarning birlashishi har bir iqtisodiyot tarmoqlaridagi samaradorlikni oshiradi, xarajatlarni minimallashtiradi va mahsulotlar sifati va xizmat tezligini oshiradi.

O`zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma`lumotlariga ko`ra, 2024 – yilda raqamli xizmatlar ulushi mamlakat YalMning 7,8 foizini tashkil etgan, bu esa 2018 – yiliga nisbatan 2,5 barobar o`sganligini ko`rsatadi.

Raqamli texnologiyalar iqtisodiyot tarmoqlarining samardorligiga quyidagi yo`llar bilan ta`sir qiladi:

- 1) Ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartiradi – avtomatlashtirish inson mehnatiga bo`lgan talabni kamaytiradi;
- 2) Raqobatbardoshlikni kuchaytiradi – raqamli yechimlar mahsulot sifatini va xizmat tezligini oshiradi;
- 3) Mehnat unumdorligini oshiradi – vaqt tejaladi va ma`lumotlar operativ tahlil qilinadi;
- 4) Investitsion jozibadorlikni oshiradi – raqamli tarmoqlarga sarmoya kiritish xavfi past bo`ladi, lekin foydasi yuqori darajada.

Masalan, bank sektorida raqamli to`lovlar joriy etilganligi sababli tranzaksiya xarajatlari 30–40% ga kamaygan, elektron soliq tizimi esa byudjet tushumlarini 12% ga oshirgan.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, raqamlashtirish darajasi yuqori bo`lgan tarmoqlarda o`shish tezligi juda sezilarli farq qiladi. Quyidagi jadvalda misol tariqasida keltirilgan:

1-jadval

**O`zbekiston Respublikasida iqtisodiy tarmoqlarning raqamlashtirishni
o`shish sur`ati**

Tarmoq	Raqamlashuv darajasi(2024)	O`shish sur`ati (%)	Samaradorlik o`shishi (%)
Bank-moliya	Yuqori	9,8	15,2
Sanoat	O`rta	6,3	9,1
Qishloq xo`jaligi	O`rta	5,1	7,4
Ta`lim	Past	3,2	4,5

Jadvaldan ko`rinadiki, raqamlashuv darajasi yuqori bo`lgan tarmoqlar (xususan, bank sektori)da iqtisodiy o`shish va samaradorlik sezilarli darajada yuqori bo`lmoqda.

Kelgusi yillarda raqamlashuv iqtisodiy tarmoqlarning rivojlanishida hal qiluvchi omil bo`lib qoladi. Shuning uchun bu yo`nalishda katta yutuqlarga erishish uchun avvalo, raqamli iqtisodiyot bo`yicha mutaxassislar tayyorlash tizimini kengaytirish zarur, deb hisoblayman. Bundan tashqari, yuqori tezlikdagi internet tarmog`ini kengaytirish, sun`iy intellekt texnologiyalarini joriy etish raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim vazifa sifatida olib borish kerak. Yurtimizda mahalliy startaplarni qo`llab quvvatlash, innovatsion ekotizimni shakllantirish va raqamli iqtisodiyot tarmoqlaridagi ma`lumotlar xavfsizligini mustahkamlash ya`ni kiberxavfsizlik infratuzilmasini kuchaytirish ishlarini nazorat qilish lozim.

Raqamlashtirish jarayonlari milliy iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanish tendensiyalarini belgilab beryapti. Ular orqali ishlab chiqarish samaradorligi oshmoqda, xizmatlar sifati yaxshilanmoqda, shuning uchun raqobatbardoshlik kuchaymoqda. Shunday ekan, raqamli iqtisodiyotning barqaror rivoji mamlakatning iqtisodiy o`shish sur`atlarini ta`minlovchi asosiy omil sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O`zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to`g`risidagi farmoni.
2. O`zbekiston Respublikasi Statistika agentligi hisobotlari (2023–2024-yillar).
3. World Bank. Digital Economy for Central Asia: Trends and Perspectives, 2024.
4. Karimov M. Raqamli iqtisodiyot: nazariya va amaliyot. Toshkent, 2022.